YOSHLAR BANDLIGINI BOSHQARISHDA HUDUDIY ISHSIZLIK PROGNOZLARIDAN FOYDALANISH

Sardor A’zamovich Jo‘rayev
Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sjurayev.uz@gmail.com

Annotatsiya. *Tezisda yoshlar bandligini boshqarishda hududiy ishsizlik prognozlarini ehtiyoj diagnostikasi va maqsadli chora tanlash bilan bog‘lash yondashuvi asoslangan. Tahlilda 14 ta hududning 2020-2025-yillardagi 84 ta kuzatuviga tayangan tadqiqot natijalari va 2026-2030-yillar prognozlari qo‘llanilgan. Umumlashtirilgan ko‘rsatkichning pasayish sur’atlari, hududiy tafovutlar va prognozni talqin qilish chegaralari baholangan. Ilmiy yangilik prognozdan yoshlar bandligiga oid boshqaruv qarorlarini asoslashda foydalanish tartibini taklif etish bilan bog‘liq.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar bandligi, hududiy ishsizlik, panel ma’lumotlar, prognoz, ehtiyoj diagnostikasi, boshqaruv qarori.*

Аннотация. *Обоснован подход, связывающий региональные прогнозы безработицы с диагностикой потребностей молодёжи и выбором мер содействия занятости. Использованы результаты исследования на основе 84 наблюдений по 14 регионам за 2020–2025 годы и прогнозы на 2026–2030 годы. Проанализированы темпы снижения обобщённого показателя, территориальные различия и ограничения интерпретации. Предлагается порядок использования прогнозов для обоснования управленческих решений в сфере молодёжной занятости.*

Ключевые слова: *занятость молодёжи, региональная безработица, панельные данные, прогноз, диагностика потребностей, управленческие решения.*

Abstract. *This paper links regional unemployment forecasts to the assessment of youth employment support needs and the selection of targeted measures. It uses research results based on 84 observations across 14 regions for 2020–2025 and forecasts for 2026–2030. The analysis examines changes in the aggregate indicator, regional differences and interpretation limits. The proposed contribution is a framework for using forecasts to inform youth employment management decisions.*

Keywords: *youth employment, regional unemployment, panel data, forecasting, needs assessment, management decisions.*

Kirish. Yoshlar bandligini ta’minlashda joriy yil davomida ishga joylashtirilganlar sonini aniqlash bilan birga, kelgusi davrda qaysi hududda qanday yordamga ehtiyoj paydo bo‘lishini baholash ham muhim. Kasbga o‘qitish, ish beruvchilar bilan hamkorlik, tadbirkorlikni moliyalashtirish va ishga joylashishga ko‘maklashish choralarining natijasi hududdagi talab bilan bog‘liq. Shu sababli boshqaruv qarorini qabul qilishda avvalgi natijalar, kelgusi mehnat bozori sharoiti va yoshlarning individual ehtiyojlari o‘rtasidagi aloqani aniqlash zarur.

Xalqaro mehnat tashkilotining yoshlar bandligiga bag‘ishlangan hisobotida mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari bilan munosib ishga erishish masalasi birgalikda ko‘rib chiqiladi[1]. Bu yondashuv yoshlarni iqtisodiy faollikka jalb qilish natijasini ish topish holati, daromad va faoliyatning davomiyligi orqali baholashga undaydi. Ishsizlik darajasining kamayishi muhim ijobiy belgi bo‘lsa-da, mazkur o‘zgarish yoshlarning barchasi barqaror ishga ega bo‘lganini anglatmaydi. Ish izlashni to‘xtatish yoki iqtisodiy faollikdan chiqish ham ko‘rsatkich talqiniga ta’sir qilishi mumkin[2].

Tadqiqotning maqsadi hududiy ishsizlik prognozlaridan yoshlar bandligini ta’minlash choralarini rejalashtirishda foydalanish tartibini asoslashdan iborat. Buning uchun real va prognoz dinamikasi qiyoslanadi, hududlar o‘rtasidagi farqlar baholanadi hamda prognozning boshqaruv qaroriga qanday axborot berishi aniqlashtiriladi. Tadqiqotning markaziy g‘oyasi umumiy mehnat bozori istiqbolini yoshlarning aniq ehtiyojlari bilan bog‘lashdir. Mazkur bog‘lanish prognoz qiymatini tayyor topshiriqqa aylantirishdan oldin qo‘shimcha diagnostika o‘tkazishni nazarda tutadi.

Asosiy qism. Bandlik dasturlari samaradorligini o‘rgangan Card, Kluve va Weber tadqiqoti turli dasturlar ta’sirini qiyoslashda dastur turi va natija baholanadigan davr muhimligini ko‘rsatadi[3]. Shundan kelib chiqib, kasbga tayyorlash dasturini tugatganlar soni bilan ishga joylashganlar sonini bitta yakuniy natija sifatida qo‘shish maqsadga muvofiq emas. Birinchi ko‘rsatkich tayyorgarlik bosqichini, ikkinchisi mehnat bozoridagi natijani bildiradi. Biz taklif etayotgan yondashuvda ham resurs ajratilishi, xizmat ko‘rsatilishi va barqaror bandlikka erishish alohida kuzatiladi.

A. Usmonov va S. Juraev yoshlar bandligi dasturlarini qamrov, amaldagi bandlik, natijaning barqarorligi, resurs qaytimi va institutsional muvofiqlashtirish

mezonlari orqali baholashni taklif etadi[10]. Mazkur yondashuv prognozni boshqaruv qaroriga bog‘lash uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Empirik asos sifatida dissertatsiya doirasida shakllantirilgan 14 ta hudud va olti yillik davrni qamrab oluvchi panel tahlil natijalaridan foydalanildi. Kuzatuvlar soni 84 tani tashkil etadi. Natijaviy o‘zgaruvchi hududiy ishsizlik darajasining natural logarifmi orqali ifodalangan. Hududiy fiksirlangan effektlar hududlarga xos, vaqt davomida o‘zgarmaydigan kuzatilmagan farqlarni hisobga olishga xizmat qiladi. Stata qo‘llanmasida ushbu baholash within usuli bilan izohlanadi [4]. Biroq hududiy effektlar vaqt bo‘yicha o‘zgaradigan barcha omillarni avtomatik nazorat qilmaydi.

Tadqiqotda tayyor prognoz qatorining qiyosiy tahlili bajarildi; regressiya koeffitsientlari yangidan baholanmadi. Hisoblashda ikki xil o‘zgarish ajratildi. Foiz punktidagi farq joriy va oldingi davr qiymatlari ayirmasi bilan, nisbiy o‘zgarish esa ushbu ayirmani oldingi davr qiymatiga bo‘lib, yuzga ko‘paytirish orqali aniqlandi. Bu farqlash zarur, chunki ko‘rsatkichning 4,74 foizdan 1,69 foizga tushishi 3,05 foiz punktlik va 64,3 foizlik kamayishni bildiradi. Mazkur ikki o‘lchovning iqtisodiy mazmuni bir xil emas.

Hududiy qiymatlarni umumlashtirishda mehnat resurslari soni hisobga olingan. Bunday hisobiy ko‘rsatkich hududiy dinamikani umumiy yo‘nalishda kuzatishga yordam beradi. Ammo mehnat resurslari va iqtisodiy faol aholi tushunchalari o‘zaro aynan teng emas. Shu bois hisoblangan qatorni rasmiy milliy ishsizlik darajasi deb atashdan saqlanamiz. Shuningdek, umumiy ishsizlikka oid model yoshlar guruhining alohida prognozini bermaydi. Yoshlar bo‘yicha qaror qabul qilishda yosh tarkibi, iqtisodiy faollik va ish izlash haqidagi qo‘shimcha ma’lumotlar talab etiladi [2].

2020-2025-yillarda umumlashtirilgan ishsizlik ko‘rsatkichi 10,55 foizdan 4,74 foizgacha pasaygan. Besh yillik oraliqdagi kamayish 5,81 foiz punktini yoki boshlang‘ich darajaning 55,1 foizini tashkil etadi. 2021-yilda pasayish 0,94, 2022-yilda 0,78, 2023-yilda 2,03, 2024-yilda 1,27 va 2025-yilda 0,79 foiz punktiga teng bo‘lgan. Eng katta o‘zgarish 2023-yilda kuzatilgan. Demak, real davrdagi kamayish bir maromda kechmagan, ayrim yillarda pasayish tezlashgan, keyinchalik esa sekinlashgan.

2023-yildagi keskin o‘zgarishni muayyan dastur yoki tashkilot faoliyatiga bevosita bog‘lash uchun grafikning o‘zi yetarli emas. Bunday xulosa uchun dastur qamrovi, iqtisodiy o‘sish, migratsiya, ishchi kuchi tarkibi va statistik hisoblashdagi o‘zgarishlar tekshirilishi kerak. Mazkur tezisda kuzatilgan pasayish tavsifiy natija sifatida talqin qilinadi. Sababiy ta’sir haqida xulosa chiqarish alohida taqqoslash guruhi yoki tegishli identifikatsiya strategiyasini talab etadi.

1-jadval.

Bazaviy va prognoz qiymatlarining yillik o‘zgarishi

Yil	Ko‘rsatkich, %	Farq, foiz punkti	Nisbiy o‘zgarish, %
= 2025	4,74	−0,79	−14,29
= 2026	3,83	−0,91	−19,20
= 2027	3,12	−0,71	−18,54
= 2028	2,54	−0,58	−18,59
= 2029	2,07	−0,47	−18,50
= 2030	1,69	−0,38	−18,36

Prognoz bo‘yicha ko‘rsatkich 2026-yilda 3,83 foizga, 2028-yilda 2,54 foizga va 2030-yilda 1,69 foizga yetishi kutiladi. 2025-2030-yillar oralig‘idagi jami pasayishning 0,91 foiz punkti, ya’ni qariyb 29,8 foizi dastlabki prognoz yiliga to‘g‘ri keladi. Oxirgi yildagi kamayish esa 0,38 foiz punktini tashkil etadi. Shunday qilib, modelda pasayishning mutlaq miqdori kamayib boradi, lekin oldingi yilga nisbatan kamayish sur’ati 18-19 foiz atrofida qoladi. Grafikning yotiqlashuvi aynan shu matematik nisbat bilan izohlanadi.

2020-2025-yillar uchun o‘rtacha yillik geometrik kamayish taxminan 14,8 foizni, 2025-2030-yillar prognozida esa 18,6 foizni tashkil etadi. Demak, prognoz davridagi nisbiy pasayish real davrning o‘rtacha sur’atidan tezroq. Bu muhim natija bo‘lib, kelgusi holatni ehtiyotkorlik bilan talqin qilishni talab etadi. Agar modelning asosiy omillari kutilgan yo‘nalishda o‘zgarmasa, 2030-yil uchun berilgan qiymat amalga oshmasligi mumkin. Shu sababli 1,69 foizlik qiymat kafolatlangan yakun emas, model shartlariga bog‘liq nuqtaviy prognozdir.

2030-yil uchun hududiy prognozlarda Sirdaryo viloyati 1,78 foiz bilan eng yuqori, Navoiy viloyati esa 1,59 foiz bilan eng past qiymatga ega. Eng yuqori va eng past natija o‘rtasidagi farq 0,19 foiz punktini tashkil etadi. Eng past qiymatga nisbatan bu tafovut taxminan 11,9 foizga teng. Ushbu ikki o‘lchov birgalikda hududiy farqni to‘g‘ri tasavvur qilishga yordam beradi. Faqat tartib raqamiga e’tibor berish bir-biriga yaqin qiymatlar o‘rtasidagi tafovutni ortiqcha kattalashtirishi mumkin.

2-jadval.

2030-yil uchun hududiy ishsizlik prognozlari

Hudud	Prognoz, %	Hudud	Prognoz, %
Sirdaryo	1,78	Xorazm	1,69
Jizzax	1,75	Namangan	1,67
Surxondaryo	1,75	Toshkent viloyati	1,65
Qashqadaryo	1,74	Samarqand	1,65
Farg‘ona	1,74	Buxoro	1,63
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1,73	Toshkent shahri	1,60
Andijon	1,70	Navoiy	1,59

Bir xil aniqlikda 1,75 foiz deb ko‘rsatilgan Jizzax va Surxondaryo, 1,74 foizli Qashqadaryo va Farg‘ona yoki 1,65 foizli Toshkent va Samarqand viloyatlarini o‘zaro qat’iy ustunlik asosida ajratish mumkin emas. Bundan tashqari, prognoz intervallari mavjud bo‘lmaganda 0,01-0,03 foiz punktlik farqlarning statistik ahamiyatini aniqlab bo‘lmaydi. Shuning uchun jadvalni hududlar faoliyatining yakuniy reytingi sifatida emas, qo‘shimcha tekshiruv va ehtiyoj diagnostikasini tashkil etish uchun axborot sifatida talqin qilamiz.

Resurs taqsimotida nisbiy ko‘rsatkich bilan ehtiyojning mutlaq hajmi ham farqlanishi kerak. Aholisi ko‘p hududda pastroq ishsizlik darajasi yuqoriroq darajaga ega kichik hududdagidan ko‘proq ish izlovchini anglatishi mumkin. Buni tekshirish uchun bir xil davr va yosh chegarasidagi ishchi kuchi soni zarur. Umumiy ishsizlik foizini barcha mehnat resurslariga ko‘paytirib, hosil bo‘lgan qiymatni ishsiz yoshlar soni deb qabul qilish metodik jihatdan asoslanmaydi. Yoshlar bo‘yicha ehtiyoj alohida ma’lumotlar yordamida aniqlanishi lozim.

Panel ma’lumotlarning vaqt uzunligi olti yil bo‘lgani uchun model tanlovi va tekshiruv tartibi alohida ahamiyatga ega. Dinamik spetsifikatsiyada natijaviy o‘zgaruvchining kechikkan qiymati qo‘llansa, qisqa paneldagi fiksirlangan effektlar bahosi siljishga moyil bo‘lishi mumkin. Nickell ushbu muammoning nazariy asosini ko‘rsatgan[5]. Demak, fiksirlangan effektlarni kiritishning o‘zi dinamik modeldagi barcha baholash muammolarini bartaraf etmaydi. Bunday spetsifikatsiya qo‘llanganda olingan natijalarning boshqa baholash usullariga nisbatan barqarorligi tekshirilishi kerak.

Arellano va Bond dinamik panel uchun instrumentlarga tayanuvchi baholash hamda spetsifikatsiya testlarini taklif qilgan[6]. Biroq 14 hududli kichik panelda ushbu usulni avtomatik ravishda afzal deb qabul qilish to‘g‘ri emas. Instrumentlarning soni va yaroqliligi, tanlanma hajmi hamda qoldiqlar xususiyatlari birgalikda baholanadi. Tezisdagi prognoz qatorini tahlil qilish ushbu testlar

bajarilganini tasdiqlamaydi; tegishli diagnostika modelning qayta baholanish bosqichida taqdim etilishi zarur.

Hududlar kesimida klasterlangan standart xatolar qo‘llanganda ham klasterlar sonining kamligi e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Cameron va Miller klaster ichidagi bog‘liqlik va kichik klasterlar soni statistik xulosalarga ta’sir qilishini muhokama qiladi[7]. Shuning uchun yuqori determinatsiya koeffitsienti yoki kichik p-qiymati kelgusi besh yillik prognozning aniqligiga mustaqil kafolat bermaydi. Modelning kuzatilgan ma’lumotlarga mosligi bilan yangi davrdagi bashorat qobiliyati alohida tekshiriladigan xususiyatlardir.

Prognozni tekshirishda vaqt ketma-ketligini saqlash muhim. Masalan, 2020-2024-yillar asosida baholangan modelning 2025-yil uchun xatosini hisoblash tarixiy ma’lumotni oldindan bilmasdan prognoz qilishga yaqinlashadi. Hyndman va Athanasopoulos vaqt qatorlari uchun ketma-ket kengayuvchi baholash oynalari hamda prognoz intervallaridan foydalanishni izohlaydi[8]. Mazkur tezisda yangi tekshiruv xatolari hisoblanmagan. Kelgusi tekshiruvda model oddiy bazaviy prognoz bilan qiyoslanishi va uzoq muddatli noaniqlik alohida ko‘rsatilishi lozim.

Taklif etilayotgan ilmiy yangilik hududiy prognozni yoshlarning individual ehtiyojlari bilan bog‘lab, boshqaruv vositasini tanlash va natijani kuzatish tartibini belgilashdan iborat. Ushbu yondashuvda prognoz hududiy mehnat bozorining kelgusi sharoitini ifodalaydi. Bandlikka yordamning aniq turi esa yoshning kasbiy tayyorgarligi, ish tajribasi, yashash hududi, ish izlash muddati va faoliyat boshlash imkoniyatlari asosida tanlanadi. Natijada bir xil prognoz darajasiga ega hududlarda ham ehtiyoj tarkibiga qarab turli choralar belgilanishi mumkin.

Birinchi bosqichda hududiy axborotning davri, o‘lchov birligi va qamrovi tekshiriladi. Yoshlar bo‘yicha takroriy yozuvlar bartaraf etilib, ishga joylashgan, o‘qishga yo‘naltirilgan va yordam kutayotgan shaxslar ajratiladi. Ikkinchi bosqichda mahalladagi individual ma’lumotlar ish beruvchilarning vakant o‘rinlari bilan solishtiriladi. Kasbiy ko‘nikma yetishmasligi, ish o‘rnining uzoqligi, ish haqi mos kelmasligi yoki boshlang‘ich resursga ehtiyoj kabi sabablar aniqlanadi. Ana shundan so‘ng prognoz umumiy ustuvorlikni belgilashga xizmat qiladi.

Uchinchi bosqichda aniqlangan to‘siqqa mos boshqaruv chorasi tanlanadi. Ish o‘rni mavjud, ammo malaka yetarli bo‘lmasa, kasbiy tayyorgarlik va amaliyot ustuvor bo‘ladi. Ko‘nikma mavjud bo‘lib, ish qidirishdagi axborot yetishmasligi kuzatilsa, vositachilik va ish beruvchi bilan bog‘lash talab etiladi. Mustaqil faoliyat boshlash uchun moliyaviy resurs zarur bo‘lgan holatda biznesning bozor talabi va xarajatlari baholangach, tegishli ko‘mak ko‘rib chiqiladi. Demak, kredit olishning o‘zi yakuniy bandlik natijasi sifatida baholanmaydi.

To‘rtinchi bosqichda 3, 6 va 12 oylik kuzatuv orqali ishda qolish, faoliyatni davom ettirish va daromadning muntazamligi qayd etilishi taklif qilinadi. Ushbu muddatlar mazkur yondashuvning monitoring taklifi bo‘lib, amaldagi majburiy norma sifatida talqin qilinmaydi. Ishdan chiqish yoki faoliyatning to‘xtashi aniqlansa, sabab qayta o‘rganiladi. Prognoz bilan haqiqiy holat orasidagi tafovut ortganda dastur hajmi va vositalari qayta ko‘rib chiqiladi. Bunda javobgarlik ajratilgan resurs miqdori bilan bir qatorda erishilgan natijaning davomiyligiga ham bog‘lanadi.

Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2026-yil 8-yanvardagi bayoniga ilovada 2026–2027-yillarda 25 ming yoshga 18 ming gektar yer ajratish rejalashtirilgan[9]. Ushbu ko‘rsatkichlar resurs rejasini ifodalaydi. Taklif etilgan yondashuv doirasida rejaning bajarilishi yer ajratilganlar soni bilan birga yerdan foydalanish, mahsulot sotish va daromad olish holati orqali baholanadi. Bu misol prognozga asoslangan rejalashtirishni amaliy natijalar monitoringi bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tahlil 2020-2025-yillarda umumlashtirilgan ishsizlik ko‘rsatkichining 5,81 foiz punktiga kamayganini, 2025-2030-yillar prognozida esa yana 3,05 foiz punktlik pasayish kutilayotganini ko‘rsatdi. Prognozning nisbiy pasayish sur’ati real davrning o‘rtacha sur’atidan yuqori bo‘lgani sababli model shartlari va yangi kuzatuvlar muntazam tekshirilishi kerak. 2030-yilgi hududiy qiymatlar orasidagi 0,19 foiz punktlik farq esa resurs taqsimotini qat’iy reytingga asoslash uchun yetarli dalil bermaydi.

Biz taklif etayotgan yondashuv prognozni ehtiyoj diagnostikasi, maqsadli yordam tanlash va bandlik davomiyligini kuzatish bilan bog‘laydi. Ilmiy natijaning amaliy qiymati shu bog‘lanishning aniq boshqaruv tartibiga aylantirilishidadir. Yondashuvning dastur samaradorligini amalda oshirish darajasi keyingi tajriba va monitoring orqali baholanishi lozim. Umumiy ishsizlik prognozi yoshlar bo‘yicha maxsus ma’lumotlar bilan to‘ldirilgandagina hududiy bandlik siyosatini asoslashda mazmunli axborot manbaiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Labour Organization. Global Employment Trends for Youth 2024: Decent Work, Brighter Futures. – Geneva: ILO, 2024. – URL: https://www.ilo.org/publications/major-publications/global-employment-trends-youth-2024.

2. International Labour Organization. Quick Guide on Interpreting the Unemployment Rate. – Geneva: ILO, 2019. – URL: https://www.ilo.org/publications/quick-guide-interpreting-unemployment-rate.

3. Card D., Kluve J., Weber A. What Works? A Meta Analysis of Recent Active Labor Market Program Evaluations // Journal of the European Economic Association. – 2018. – Vol. 16, № 3. – P. 894–931. – DOI: 10.1093/jeea/jvx028.

4. StataCorp. xtreg — Linear Models for Panel Data // Stata Longitudinal-Data/Panel-Data Reference Manual. – “Description”, “Methods and formulas” bo‘limlari. – URL: https://www.stata.com/manuals/xtxtreg.pdf.

5. Nickell S. Biases in Dynamic Models with Fixed Effects // Econometrica. – 1981. – Vol. 49, № 6. – P. 1417–1426. – DOI: 10.2307/1911408.

6. Arellano M., Bond S. Some Tests of Specification for Panel Data: Monte Carlo Evidence and an Application to Employment Equations // The Review of Economic Studies. – 1991. – Vol. 58, № 2. – P. 277–297. – DOI: 10.2307/2297968.

7. Cameron A. C., Miller D. L. A Practitioner’s Guide to Cluster-Robust Inference // Journal of Human Resources. – 2015. – Vol. 50, № 2. – P. 317–372. – DOI: 10.3368/jhr.50.2.317.

8. Hyndman R. J., Athanasopoulos G. Forecasting: Principles and Practice. – 3rd ed. – Melbourne: OTexts, 2021. – Sections 5.5, 5.10. – URL: https://otexts.com/fpp3/.

9. Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi. 2026-yil 8-yanvardagi 1-son yig‘ilish bayoni va ilovasi. – Toshkent, 2026. – 6-bet. – URL: https://api-portal.gov.uz/uploads/64/2026/01/29/8efa0a2a-ee5d-af75-1b6c-3d3ae7646cfamedia.pdf.

10. Usmonov A., Juraev S. Analysis of the Effectiveness of Youth Employment Programs and Organizational-Economic Instruments Implemented by the Youth Affairs Agency // American Journal of Economics and Business Management. – 2026. – Vol. 9, № 9. – P. 254–264. – DOI: 10.31150/ajebm.v9i9.5488.